

KEVIN RAYANNING “VAN XELSING” ASARIDA GOTIK ROMAN XUSUSIYATLARINING BERILISHI

Lobar Islamovna Namozova

Turkiston Yangi Innovatsiyalar Universiteti I bosqich magistranti

lobar1210n@gmail.com

Annotatsiya

Gotika - mistik, sirli va g'ayritabiiy xususiyatlari bilan ajralib turadigan yo'nalish sifatida romantizm asosida shakllangan. Ushbu yo'nalish dahshat va romantik elementlarni birlashtirgan adabiy janrlar va uslub sifatida g'arb adabiyotida juda mashhur. Mazkur ishdada gotik yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari va asosiy elementlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: gotika, mistika, grotesk, romantizm, gotik roman.

Kirish

So'nggi yillarda nafaqat dunyo adabiyotida, balki san'atning kino, musiqa va moda olamida ham gotika yo'nalish tobora keng tarqalyapti. Adabiyotdagi gotika (gotik fantastika yoki gotika adabiyoti) – g`amgin manzaralar, grotesk harakatlar, g`ayritabiiy elementlar, romantika va ekzotizm bilan ajralib turadigan yozuv uslubi. Gotik yozuvchilar o'z asarlarida o'quvchida qo'rquv va dahshat tuyg`ularini qo'zg`atadigan turli elementlardan foydalanishadi. Bunday elementlardan o'liklar dunyosi vakillarining aralashuvini, nasldan naslga ko'chuvchi la'nat va qargish, ruhan ezadigan sirli, dahshatli muhit, bir so'z bilan aytganda oddiy inson tafakkuri anglashi qiyin bo'lган xususiyatlarni misol tariqasida aytishimiz mumkin. Adabiyotda gotikani to'liq anglash uchun uning tarix va jamiyatdagi o'rnini, bundan tashqari, yozuvchilarni bunday dahshatli yozuv uslubiga qo'l urishga majbur qilgan omillarni ham o'rganish kerak.

“Gotika” atamasi o'rta asrlarda shimoliy german qabilasi bo'lган Gotlar tomonidan yaratilgan o'rta asr me'morchiligidan kelib chiqqan. Gotika me'morchiligi o'zining tashqi ko'rinishidan qorong'u, murakkab va ma'yus edi va bu me'morchilik uslubi eskirgan, umidsiz arxaik, “urfdan chiqqan” degan ma'noni anglatgan. Estetik jihatdan bezatilgan va kontseptual jihatdan murakkab, bu o'rta asr ekzotik arxitektura Yevropada yangi adabiy janr, ya'ni gothicism yoki gotik adabiyoti uchun ilhom va ideal muhitga aylandi.

Gotik roman janri adabiy oqim sifatida romantizm oqimidan ancha oldin paydo bo'lган. Birinchi “rasmiy” gotik roman Tomas Lelandning “Longsword” (Uzun qilich) 1762 yilda nashr etilgan. Angliya va Germaniyada romantizm harakatning paydo bo'lishi odatda XVIII asrning 90 yillariga to'g'ri keladi. [2, 65] Biroq, romantizmning kuchli ruhiy oqimi yangi paydo bo'layotgan sir-sinoat va qo'rquv adabiyotini o'ziga singdirib, o'zining tasavvufiy

tushunchalari bilan boyitib, uni “tafakkur e’tiqodi”ga qarshi isyonning asosiy so’zlovchilaridan biriga aylantirdi.

Angliyada gotik adabiyoti gullab-yashnagan bir paytda, Amerika adabiyoti fan, tabiat va individualizmga qaratilgan adabiy oqim Transsentalizmning ta’siri ostida edi. Romantizm bu “aql yurakdan ustun” degan g`oyaga javob sifatida paydo bo’ldi. Romantistlar ilm-fanning sovuq dalillariga emas, balki his-tuyg`ularga, va ko’rinmas dunyoga ishonishgan. Romantizmning bir tarmog’i sifatida Amerika gotikasi deb tanilgan “dark romantizm” paydo bo’ldi. Romantizm bilan solishtirganda, u ko’proq zulmat, g`ayritabiylilik, grotesk, mantiqsizlik va iblisni namoyon etadi. Dastlab amerikaliklar bu janrni ishonchhsiz deb qabul qilishmaydi chunki ularning gotikasida tarixiy ildiz yetishmasdi. Uni boshqa gotik asarlardan ajralib turishi uchun amerikalik yozuvchilar o’zlarining dahshat tushunchalarini o’z ichiga olgan gotik xususiyatlarini yaratdilar.

Asosiy qism. Gotika romantizmning ko’plab xususiyatlariga ega bo’lsada, u asosan insoniyatning salbiy tomonlariga va uning gunoh va yovuzlik bilan mashg`ulligiga qaratilgan. Xurofot va ko’r-ko’rona e’tiqoddan ko’ra ko’proq aql va ilm-fanga urg`u bergen ma’rifatdan farqli o’laroq, gotika yozuvchilari o’quvchilarning his-tuygularini uyg`otishni maqsad qilganlar. [4, 124] Ular asosan insonning xatosi, ayb va gunohning psixologik ta’siri, o’z-o’zini yo’q qilish, jazolash va hukm qilishga qaratilgan. Dastlabki gotik romanlar asosan din, axloq va falsafaga qaratilgan bo’lib, yovuz kuchlar qahramon yengib o’tishi kerak bo’lgan turli xil insoniy vasvasalar uchun metafora vazifasini bajaradi. Ularning oxiri ko’pincha baxtsiz ya’ni romantika hech qachon ularning diqqat markazi hisoblanmagan. Ammo o’tgan asrlar davomida gotik fantastika nafaqat rivojlandi, balki bir nechta mavzularni o’z ichiga olgan ko’plab mashhur kichik janrlarga tarqaldi.

Gotik romanlarga janrning ilk namunalaridanoq qiziqish katta edi. Ushbu kitoblarni aholining barcha qatlamlari o’qigan va hatto gotik romanlarining maxsus ommaviy kutubxonalari ham mayjud edi. “Sir-sinoat va dahshat” romani sifatida ham tanilgan gotika janri nafaqat ommaviy adabiyotga, balki XIX-XX-asrlarning atoqli yozuvchilari ijodiga ham ta’sir ko’rsatdi va ularg qo’rquv va noaniq tashvish muhitini yaratishga yordam beradigan bir qator badiiy effektlarni meros qilib qoldirdi. Bu badiiy effektlar Kevin Rayanning “Van Xelsing” romanida ham o’z aksini topgan. “Dunyoni zulmat qopladi. Yovuzlikning eng qadimiylari va dahshatli kuchlari: graf Drakula, Frankenshteyn, bo’ri, vampirlar va yer osti dunyosining jirkanch mavjudotlari Karpat tog’lari orasidagi inson zoti yetib borishi qiyin bo’lgan Transilvaniyada birlashdilar. Faqatgina eng zo’r ovchi bu tungi yirtqichlarni yer yuzidan yo’q qilib, odamzotni yaqinlashayotgan xavfdan qutqarishi mumkin edi. Vatikan o’zining bebaho agenti Van Xelsingni halokatli missiyaga yuboradi. Biroq, jasur jangchi nimaga duch kelishini va o’zining o’tmishi qanday dahshatli sirni yashirayotganini bilmasdi...” [3, 54] Gotik romanining asosiy yutug’i dahshatli voqealar tasviri yordamida o’quvchiga

psixologik ta'sir effektini yaratishdir. Biroq, dahshatli voqealar o'z-o'zidan gotik romanining maqsadi emas, muhimrog`i – tushkunlikka soluvchi va qahramonlar taqdiridagi xavfli burilishlarni va ularning hayotiga xavf solayotgan tahdid bilan to'qnashishini oldindan sezish muhitini yaratishdir.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Fridrix Shiller ta'kidlaganidek, dahshat bizni o'ziga tortadi va aksincha, o'zidan itaradi. "Hamma qotillik haqida gapirayotgan hikoyachining atrofida katta e'tibor bilan to'planadi; biz arvoqlar haqidagi eng g'ayrioddiy ertakni ochko'zlik bilan yutib yuboramiz va ochko'zlik qanchalik kuchli bo'lsa, teppa sochimiz shunchalik tikkayib boraveradi."

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Alam, Zaheed. Treatment of the gothic elements by the early romantics. ASA University Review. – 2012. – 243 p.
2. Jennie, U. R., and S. Subramanian. Gothic Literature – A Background Study on Main Elements of Horror in Gothic Fiction. – 2006. – 145 p.
3. Killeen, Jarlath. Gothic Literature 1825-1914. University of Wales Press. – 2009. – 236 p.
4. Kevin Ryan, Van Helsing. HarperCollins Entertainment. – 2004. – 272 p.
5. Khamdamova, S. B. (2022). Mythological Themes and Motives in William Butler Yeats' Poetry. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 6, 147-150.
6. Mulvey-Roberts, Marie. The handbook to Gothic literature. Springer. – 1998. – 156 p.
7. Sh, H. S. (2018). SIR WALTER SCOTT'S ARTISTIC SKILL IN THE EXPRESSION OF HISTORICAL FACTS AND LITERARY FICTION IN HIS HISTORICAL NOVELS. *Мировая наука*, (5 (14)), 35-37.
8. Hamroyeva Sharifa Shukur Qizi. (2023). ISSUES OF TRANSLATING NATIONAL COLORING WORDS - REALIAS IN THE NOVEL “NAVOI” BY OYBEK. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(04), 29–33. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue04-06>
9. Hamroyeva, S., & To'xtayeva, F. I. (2019). WALTER SCOTT, THE ACKNOWLEDGED MASTER OF HISTORICAL NOVEL IN THE ENGLISH LITERATURE. In *Роль науки в формировании современной виртуальной реальности* (pp. 16-18).
10. Sh, H. S., & Muhidova, G. (2018). PEDAGOGICAL AND METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF TEACHING ENGLISH TO YOUNG LEARNERS. *Мировая наука*, (5 (14)), 37-39.
11. Raxmonov , E. K. o'g'li, Qobilov , F. S. o'g'li, & Berdimuradov , X. T. o'g'li. (2023). RESPUBLIKAMIZDA YETISHTIRILAYOTGAN BUG'DOY DONLARINING FIZIK-KIMYOVIY KO'RSATKICHLARINING TAHLILI. ILMIY TADQIQOT VA

- INNOVATSIYA, 2(2), 95–101. Retrieved from <http://ilmiytadqiqot.uz/index.php/iti/article/view/144>
12. Qobilov, F. S. o‘g‘li, & Raxmonov, E. K. o‘g‘li. (2023). NON MAHSULOTLARINI TAYYORLASHDA QURUQ KLEYKOVINADAN QO‘SHIMCHA SIFATIDA FOYDALANISH. ILMIY TADQIQOT VA INNOVATSIYA, 2(2), 58–63. Retrieved from <http://ilmiytadqiqot.uz/index.php/iti/article/view/139>
13. Sattorova, K. A. qizi, & Raxmonov, E. K. o‘g‘li. (2022). NON MAHSULOTLARINI SIFATINI OSHIRISHDA QO‘LLANILADIGAN QO‘SHIMCHALAR. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(1), 29–31. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/230>
14. O‘G‘Li, X. T. X., Berdimuradov, E. K. O. G. L., BUG‘DOY, R. N. U. T., & ASOSLASH, N. T. V. CARJIS. 2022.№ 10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/navli-un-tortishda-bug-doy-navlarini-tanlash-va-asoslash> (дата обращения: 29.03. 2023).
15. Hamroyeva Sh.Sh., & Muhidova G. (2018). PEDAGOGICAL AND METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF TEACHING ENGLISH TO YOUNG LEARNERS. Мировая наука, (5 (14)), 37-39.
16. Hamroyeva Sh.Sh. (2018). SIR WALTER SCOTT’S ARTISTIC SKILL IN THE EXPRESSION OF HISTORICAL FACTS AND LITERARY FICTION IN HIS HISTORICAL NOVELS. Мировая наука, (5 (14)), 35-37.